

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDAGI UMUMIY STRUKTURAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

B.A.Xamidov

ADCHTI, o'qituvchi

Annotatsiya: Maqolada frazeologik birliklarning zamonaviy tilshunoslikdagi umumiy struktural-semantik xususiyatlari, ularning soʻz yoki leksik birlikning ekvivalenti sifatida tahlil qilinishi, amaldagi mavjud munosabatchilikka asoslangan yondashuvni bevosita ekvivalentlik nazariyalariga aylantirishga boʻlgan harakat haqida soʻz yuritiladi.

Kalit soʻzlar: struktural-semantik xususiyatlar, soʻz, leksik birlik, frazeologizmlar yaxlitligi, obrazlilik, boʻyoqdorlik, emotsional ekspressivlik, ekvivalent nazariyasi, omonimlar, sinonimlar.

Annotation: In the article the general structural-semantic features of phraseological units in modern linguistics, their analysis as an equivalent of a word or lexical unit, and attempt to transform the current existing relational-based approach into direct equivalence theories are discussed.

Key words: structural-semantic properties, word, lexical unit, phraseologisms integrity, figurativeness, coloring, emotional expressiveness, equivalent theory, homonyms, synonyms.

Аннотация: В статье рассматриваются общие структурно-семантические свойства фразеологических единиц в современной лингвистике, анализируются их как эквиваленты слова или лексической единицы и предпринимается попытка преобразовать существующий подход, основанный на отношениях, в теории прямой эквивалентности.

Ключевые слова: структурно-семантические свойства, слово, лексическая единица, целостность фразеологизмов, образность, окраска, эмоциональная выразительность, теория эквивалентов, омонимы, синонимы.

Frazeologiyaning tilshunoslikdagi alohida soha sifatidagi keyingi yillardagi taraqqiyoti natijasida tadqiqotlarda frazeologik birikmalar va soʻzlar oʻrtasidagi munosabatlarni va frazeologik birliklarning lingvistik statusini oydinlashtirishdek murakkab vazifalarni hal qilish zarurati paydo boʻlmoqda. Olib borilayotgan ayrim ishlar mazmunida frazeologik birliklar soʻz yoki leksik birlikning ekvivalenti sifatida tahlil qilinishi natijasida, amaldagi mavjud munosabatdoshlikka asoslangan yondashuvni bevosita ekvivalentlik nazariyalariga aylantirishga boʻlgan harakat ilgari surilmoqda. Oʻz navbatida ekvivalentlik nazariyasi Sh.Balli tadqiqotlarida asoslab berilgan boʻlib, FBlarni ifoda xususiyatlariga koʻra “identifikatsiya”lash, boshqacha qilib aytganda birikma maʼnosini soʻzga teng yoki teng emasligiga asoslangan holda tasnif qiluvchi qarashdir. Sh.Balli tadqiqotlarida FB maʼnosi bir soʻz semasiga teng boʻlgan leksik birliklar “identifikator soʻz” atamasi bilan nomlanib, uning mavjudligi frazeologik birlik yaxlitligini ifoda qiluvchi eng muhim belgi sifatida talqin etilgan [3, 78]. Biroq, bu konsepsiyaga N.N. Amosova, N.M. Babkin, V.P. Jukov, A.V. Kunin, A.I. Smirnitkiy, N.M. Shanskiy[1,67] singari tilshunoslar qoʻshilmaydilar. Ular FBlarning xususiy differensial jihatlarini aniqlashda boshqa faktorlar muhim ekanligini taʼkidlaganlar. Bu borada V.P. Jukov alohida izlanishlar olib borib, “frazeologik birliklarning yaxlitligi bu usul bilan aniqlanib boʻlmasligini” koʻp hollarda oddiy turgʻun boʻlmagan frazeologik birliklar ham “tilda mavjud alohida leksik sinonim soʻzga ega boʻlishi” mumkinligini koʻrsatib berish orqali, ekvivalentlik nazariyasining eng nozik nuqtasini aniqlagan edi [5, 34]. Jumladan, ingliz tilidagi “*look fixedly*” birikmasi “*to stare*”, mos ravishda “*sufferings of mind or body – pain*” tarzida alohida sinonim soʻzga ega boʻlishiga qaramay, ular frazeologik birlik emas, balki sintaktik birlik hisoblanadi. Darhaqiqat, koʻp hollarda frazeologik birlik va soʻz oʻrtasida semantik ifodalar sinonim sifatida qoʻllanilsada, hech

qachon ular teng emas. Chunki frazeologizm va soʻz maʼnosi teng boʻlganida, frazeologizmlar keraksiz boʻlib, hozirda eʼtirof etilayotganidek alohida til birligi maqomiga ega boʻlmasdilar. Misol sifatida “*tomdan tarasha tushmoq*” frazeologizmi bilan “*toʻsatdan*” leksemasining maʼnolarini qiyoslab koʻraylik. Mazkur frazeologizm “*kutilmagan, tushunib boʻlmaydigan narsa yoki hodisadan oʻta darajada taʼsirlanib, taajjublanmoq*” boʻlsa, “*toʻsatdan*” leksemasi “*kutilmagan, tushunib boʻlmaydigan narsa yoki hodisadan taʼsirlanmoq*” sememasiga ega. Har ikkala maʼnoda ham kishi ichki ruhiy holati, yaʼni denotat aks etgan. Biroq frazeologizm maʼnosida “*oʻta darajada*” va “*soʻzlashuv uslubiga xos*”, “*boʻyoqdor*” semalariga egaligi bilan “*toʻsatdan*” leksemasidan farqlanadi. Demak, frazeologizmning koʻpincha, ifoda semalarida obrazlilik, boʻyoqdorlik boʻrtib turadi. Umuman olganda, frazeologik maʼno torroq va muayyanroq, leksema maʼnosi esa unga nisbatan kengroq va mavhumroq boʻladi. Masalan, “*toʻsatdan*” leksemasi umumslubiy va boʻyoqsizdir. Shuning oʻziyiq barcha uslubda qoʻllanish imkoniga egaligini va turli “*boʻyoqlar*” bilan ishlatish mumkinligini koʻrsatadi. Qolaversa, frazeologik birliklar qatoriga kiritiladigan maqol-matallar maʼnosi odatda bir leksemaga emas, balki gap maʼnosiga teng boʻlishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi *birds of a feather flock together – people who have the same interests, ideas, etc. are attracted to each other and stay close together; the blind leading the blind – a situation in which the person who is leading or advising others knows a little as they do* [6, 80-84] va oʻzbek tilidagi *Ali akani itiday sakkillamoq, boʻzchi belboqqa yolchimaydi, buzoqning yugurgani somonxonagacha, qazisan, qartasan asli naslinga tortasan* kabi FBlar ana shunday tarzda gap semasiga teng birliklardir. Bundan xulosa qiladigan boʻlsak, tilshunoslar orasida frazeologizmlarning aynan nima ekani, ularning tarkibiy strukturasi borasida ham yakdil fikr hanuz mavjud emas. Baʼzi olimlar (L.P. Smit, V.P. Jukov, V.N. Teliya, N.M. Shanskiy va hakazo) frazeologizmlar qatoriga turgʻun birikmalarni ham kiritishsa, qolganlari (N.N. Amosova, A.M. Babkin, A.I. Smirnitskiy kabilar) maqol va matallarni frazeologiyadan tashqaridagi birliklar sifatida tahlil qilganlar. Bular orasida V.V. Vinogradov ham maqol-matallar va qanotli kalimalarni oʻz

semantik qurilishiga ko'ra frazeologizmlardan farqlanishini e'tirof etib, ularni "gap qurilishiga ega bo'lib, ma'nosini bir leksema semasi orqali aks ettirib bo'lmas"ligi tufayli ekvivalentlik nazariyasi tamoyillari orqali tahlil qilib bo'lmasligini ta'kidlaydi [4, 243].

Biroq, barcha tillarda frazeologizmlar bir qancha sathlarga ajratilib, ayrim hollarda ular hammaga ma'lum, lug'at tarkibiga kiritilgan bo'lmay, faqatgina ma'lum bir guruh so'zlashuvchilari orasida qo'llanilayotgan bo'lishi ham mumkin. Bu jihat, o'z navbatida, ularning semantikasini to'g'ri anglash, tillararo tarjimada aks ettirishda ayrim qiyinchiliklarga sabab bo'luvchi holat bo'lib, alohida maxsus bilimlarga ega bo'lishni talab qiladi. O'z navbatida ta'kidlab o'tish joizki, leksik birliklarga xos bo'lgan omonimiya va ko'p ma'nolilik frazeologik birliklarga ham taalluqli bo'lgan hodisalardir. Aynan bir frazeologik birliklar mazmunida ham turg'un birikma ham erkin birikma aks ettirilib, bir-birlariga omonimik munosabat ko'rsatishlari ko'p kuzatiladi. Masalan, ingliz tilidagi "the girl next door" frazeologik birligi erkin birikma sifatida "qo'shni uyda yashovchi qiz" semasini anglatsa, turg'un birikma shaklida "oddiy qiz, hammaga o'xshagan qiz" ma'nosini ifoda qiladi. Ularning qay bir ma'nosi qo'llanilayotgani esa bevosita kontekst mazmunida aktuallashib, bir kontekst uchun faqat bir semasi tegishli bo'ladi. Tilshunoslikda "frazeologizm-leksema" munosabatlari tahlili va muammolari asosan ikki yo'nalishda e'tirof etiladi. Birinchisi, ekvivalent nazariyasi bo'lib, u – tor doiradagi tahlilga asoslanadi va frazeologizmlar leksikologiyaning bir qismi sifatida leksik birliklarning ekvivalentlari tarzida tahlil qilinadi. Ikkinchi qarash bu – keng miqyosda tahlil qilish bo'lib, frazeologizmlar mustaqil til sohasi sifatida o'rganiladi.

Ekvivalentlar nazariyasining ayrim tarafdorlari, jumladan N.N. Amosova, A.M. Babkin, A.I. Smirnitkiy kabi olimlar, frazeologizmlarni leksik birlik sifatida talqin qilib, ularni alohida o'rganish zarurati yo'qligini, frazeologizmlar tahlilida ham leksik birliklar kabi klassifikatsiyalarni joriy qilish yetarli deb hisoblagan [2, 138]. Bunda, frazeologizmning semantik qurilishi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, bir so'zga teng birlik sifatida qaralib, mavjud frazeologizmlar borasidagi tadqiqotlarni yo'qqa chiqaradi. Darhaqiqat, frazeologizmlarning nutq jarayonida so'zlar kabi tayyor holda qo'llanilishi,

grammatik kategoriyalar ta'siridagi paradigmikasining mavjudligi va bir konseptni aks ettirishi frazeologizmlar tahlilidagi ekvivalent nazariyasining eng ustun tamoyillaridan biridir. Ammo, bizning fikrimizcha, frazeologizmlarni so'zga tenglashtiruvchi qarashlar to'g'ri bo'lmay, ular mazmunidagi o'ziga xos semantikani, emotsional-ekspressivlik va kontekstual qo'llanilishni tamoman inkor etadi. Frazeologizmlar ma'nosi leksemaga teng bo'lsada, ularni to'liq sinonim deb bo'lmaydi, turli kontekstlarda erkin almashtirish imkoni bo'lmaydi. Qolaversa, har qanday frazeologizm bu – so'z emas, balki grammatik qoidalar asosida munosabatga kirishuvchi so'zlar birikmasi bo'lib, aksariyat hollarda yaxlit struktura, ajralmas qismlardan iborat bo'lishi va doimiy bir tarkibli bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Maqola so'ngida biz semantik jihatdan shaxs ijtimoiy-kasbiy nominatsiyasi komponentli FB'larni 2 xil usulda struktural-semantik jihatdan tahlil qilish mumkinligi haqidagi fikrlarimizni bildirmoqchimiz:

- 1) Shaxsning kasbi, unvoni, lavozimi va faoliyatiga ko'ra (*o'qituvchi*) nomlanishi;
- 2) Shaxsning ijtimoiy mavqe, mansabiga ko'ra va tashqi qiyofasiga ko'ra (*qo'rg'on qiroli*) nomlanishi.

Shaxsning kasbi, unvoni, lavozimi va faoliyatiga ko'ra nomlanishi, masalan, ingliz tilida:

Ad'yektiv FB – *as mad as a hatter (shlyapa tikuvchi yoki sotuvchi kabi telba); backseat driver (ikki xil ma'noda keladi, ya'ni yo'lovchi boshlovchi -haydovchiga yo'l ko'rsatuvchi; bema'ni-foydasiz maslahat beruvchi shaxs); Joe avarage (kasbining ustasi); Joe Bloggs (tipik o'z kasbiga sodiq inson).*

Fe'lli FB - *to swear like a trooper, (soldier, fishwife, odd fish-eccentric person) (lashkarboshi, askar, janjalkash ayol kabi qasam ichmoq, g'alati odam);*

Adverbial FB - *like a lamplighter, like odd fish (chiroq yoquvchiga o'xshab, g'alati odamga o'xshab, ya'ni xar bir kasbda ham ijobiy ham salbiy kasb egasiga –hammani hayratga soluvchi odam sifatida qo'llaniladi.); Joe Sixpack (texnika bo'yicha: kompyuter, internetdan bilimsiz shaxs)*

O'zbek tilida:

Ad'yektiv FB – *Dimog 'dor rais, hotamtoy dehqon, sag'ir xizmatchi;*

Fe'lli FB- *Mokidek yuguroq oqsoch, aravakashdek so 'kong'ich do 'kondor;bo 'zchi belboqqa yolchimas.*

- *Eh Otabek inim bo'zchi belboqqa yolchimas ekan, bir kunimizni ko 'rib yuribmiz, dedi usta Boqi, shuncha urinish befoyda, karnaychidan bir puf.* (A. Qodiriy, O'tgan kunlar: 57)

Adverbial FB- *soqiy- may quyuvchi;*

Shaxsning ijtimoiy mavqe, mansabiga ko 'ra va tashqi qiyofasiga ko 'ra nomlanishi, masalan, ingliz tilida:

Ad'yektiv FB – *as drunk as Lord (Lord kabi sarmast);Company man (o 'z xodimlariga adolatli rahbar); John Hancock (John Henry) (biror kasbda ish bitirish uchun zarur imzo egasi ismi o 'rnida qo 'llaniladigan (frazologik) idiomatik birlik.*

Fe'lli FB- *Lick someone's shoe (boots) biror kimni hurmatiga sazovor bo 'lish.* Masalan: -*The Tempest when Caliban wants to serve Stephano rather than Trinculo, offering to lick his shoe. [Shakerspeare, 32]*

O'zbek tilida

Substantiv FB - *Qo 'zg'olon sardori, qo 'rg'on xonimi, xaloskor doktorlar;* Masalan, - *Qani Xakimjon, ukaginam xaloskor doktorlar nima deydi, bu haqida.* (Said Axmad, *Kelinlar qo 'zg'oloni:* 65)

Ad'yektiv FB – *Alifdek tik turuvchi xodim;*

Adverbial FB- *Shox zamonida (qadimda), Dukchi Eshon siyrati(ziyrak, tashabbuskor, qo 'rqmas);*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. —Л.:1989. / Бабкин А.М. Русская фразеология, ее развитие и источники. - Л.: Наука, 1990.¹Жуков В.П. Семантика фразеологических оборотов. — М.: 1990. с. 83
2. Амосова Н.Н. О целостном значении идиомы // Исследования по английской филологии.Сб. науч. статей №2, — Л.: 1961. с.87/ Бабкин А.М. Лексикографическая разработка русской фразеологии. М.:1964. С. 260/ А.И.Смирницкий. История английского языка (средний и новый период): Курс лекций. —М.: 1965. с. 138
3. Балли Ш. Французкая стилистика. —М.: Эдиториал УРСС, 2001.с. 60.
4. Виноградов В.В. Основные типы лексических значений слова // ВЯ. — 1953. -№5. с. 243
5. Жуков В.П. Семантика фразеологических оборотов. — М.: 1990. с. 83
6. Longman Dictionary of English Idioms. —Harlow. London: Longman. 1980. p. 80-84.